

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
ERON-AFG‘ON FILOLOGIYASI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

FORS TILIDA O‘TGAN ZAMON SIFATDOSHLARI
(funksional-grammatik tahlil)

Tadqiqotda o‘tgan zamon sifatdoshining morfologik va sintaktik hamda leksik-semantik xususiyatlarining kompleks tahlili, uning fe’l tizimi bilan chambarchas bog‘liqligi, o‘tgan zamon sifatdoshining fe’l tizimidagi analitik shakllarni yasashdagi ishtiroki, ad’ektivatsiya va substantivatsiya jarayonlari yoritilgan.

Bajardi: “Filologiya (fors tili)” ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchi kurs talabasi

M.S.Karimova _____

Ilmiy rahbar: “Eron-afg‘on filologiyasi” kafedrasi
dotsenti, f.f.n.

A.A.Vohidov _____

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etiladi

Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti
dekani f.f.n. dots. Omonov Q.

Eron-afg`on filologiyasi kafedrası
mudiri f.f.n. dots. Alimova X.

«____» iyun 2014y

«____» iyun 2014y

MUNDARIJA

KIRISH	5
I Bob. O‘tgan zamon sifatdoshi fe’lning noaniq shakli	8
1.O‘tgan zamon sifatdoshining o‘rganilganlik darajasi	8
2.O‘tgan zamon sifatdoshining fe’l bilan leksik-semantik bog‘liqligi	10
II Bob. O‘tgan zamon sifatdoshining funksional-grammatik xususiyatlari	14
1. O‘tgan zamon sifatdoshining umumiy xarakteristikasi.	14
2. O‘tgan zamon sifatdoshining fe’lning turli tarkibiy turlaridan yasalishi	15
2.1.Sodda fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshi	16
2.2. Prefiksli fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshi	17
2.3 Qo‘shma fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshi	19
3. O‘tgan zamon sifatdoshining asos fe’l bilan semantik bog‘liqligi	22
4. O‘tgan zamon sifatdoshining fe’liy xususiyatlari	24
4.1.Zamon ma’nosi	25
4.2.O‘timlilik o‘timsizlik ma’nosi	26
4.3. O‘tgan zamon sifatdoshining morfologik vazifasi	27
4.5. O‘tgan zamon sifatdoshining fe’liy boshqaruv xususiyati	36
XULOSA	40
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	42

KIRISH

O'tgan zamon sifatdoshlari hozirgi fors tilida barcha grammatik qo'llanmalarda fe'ning analitik shakllarini, masalan, o'tgan zamon natijali fe'li, uzoq o'tgan zamon fe'li, majhul nisbat shakllarini yasashida qo'llanuvchi asos sifatida qayd etiladi. Fors tili dasturlarida berilgan fikrlar o'zining qisqaligi bilan ajralib turadi va izohlarda o'tgan zamon sifatdoshining grammatik xususiyatlari, semantikasi, ishlatilishidagi o'ziga xosliklar haqida so'z yuritilmaydi. Bundan tashqari, o'tgan zamon sifatdoshi va o'tgan zamon ravishdoshi orasidagi farqlar ochib berilmaydi.

Mazkur masalalarning hali to'liq hal etilmagani tadqiqot mavzusining **dolzarbligidan** dalolat beradi. Tadqiqot **obyekti** sifatida hozirgi fors tilidagi o'tgan zamon sifatdoshi belgilanadi. Tadqiqot predmeti esa ob'ekt chegarasi bilan qamrab olinadigan o'tgan zamon sifatdoshining funksional-grammatik tahlilidan iborat bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishida **maqsad** sifatida o'tgan zamon sifatdoshining leksik-grammatik, tarkibiy, semantik xususiyatlarini va kategorial ma'nolarini o'rganish hamda o'tgan zamon sifatdoshining fe'l va ismiy so'z turkumlari bilan qiyoslash asosida grammatik belgilarini aniqlash qo'yilgan. Bundan tashqari, o'tgan zamon sifatdoshining sintaktik qo'llanishidagi o'ziga xosliklarni ko'rsatish ham maqsad doirasiga kiritiladi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi **vazifalarni** hal etish belgilanadi:

1. O'tgan zamon sifatdoshining tarkibiy va semantik tahlilini o'tkazish va uning yasash usullarini ko'rsatish;
2. O'tgan zamon sifatdoshining fe'liy xususiyatlarini aniqlash;
3. O'tgan zamon sifatdoshining yetakchi fe'l bilan semantik mutanosibligini begilash;
4. O'tgan zamon sifatdoshining boshqa so'z turkumlariga o'tishi uchun zarur grammatik sharoitlarni aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishida amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi asosiy holatlar himoyaga olib chiqiladi:

1. O'tgan zamon sifatdoshining morfologik va sintaktik hamda leksik-semantik xususiyatlarining kompleks tahlili uning an'anaviy ravishda alohida sifatdosh turiga ajratib kelinayotganining maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi;

2. O'tgan zamon sifatdoshi o'zining fe'l tizimi bilan chambarchas bog'liqligini zamon, o'timlilik o'timsizlik ma'nolarini saqlab qolishi, sintaktik aloqaning boshqaruv turini amalga oshira olishi bilan namoyon qiladi. O'tgan zamon sifatdoshining asosiy grammatik ma'nosi – ish-harakatning belgi-xususiyat ko'rinishida ifodalanadigan natijasi;

3. O'tgan zamon sifatdoshining fe'l tizimidagi analitik shakllarni yasashdagi ishtiroki avvalboshdan uning yetakchi fe'l bilan tarkibiy va semantik mutanosibligini saqlab qolishini ta'minlaydi. Bunday mutanosiblik faqat o'tgan zamon sifatdoshining transpozitsiyaga uchrashi holatlaridagina buzilishi mumkin;

4. O'tgan zamon sifatdoshi fe'lning barcha tarkibiy turlaridan hech qanday cheklashlarsiz yasaladi;

5. Ad'ektivatsiya va substantivatsiyaga uchragan o'tgan zamon sifatdoshi sifat va otga xos barcha morfologik ko'rsatkichlarni qabul qiladi va tegishli sintaktik vazifalarni bajara oladi;

Bitiruv malakaviy ishda grammatikaning tegishli bo'limini yoritish uchun o'ziga xos bo'lgan an'anaviy tushuncha va terminologik apparat qo'llanadi. "O'tgan zamon sifatdoshi" termini ostida ishimizda fe'ldan yasaluvchi va ham fe'liy, ham ismiy xususiyatlarga ega bo'lgan leksik birliklar kategoriyasi tushuniladi. Ishimizda o'tgan zamon sifatdoshining nafaqat sifat, balki o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qila olishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot metodikasi to'plangan faktik material xususiyatidan kelib chiqib belgilandi va lingvistik tahlilning turli usullaridan iboratdir. Ishda qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun tavsifiy-tahliliy usul yetakchilik qilib, zarur holatlarda komponent va tarkibiy tahlil usullaridan ham foydalanildi. Faktik material tahlili sinxron sathda o'tkazildi. Ayrim holatlarda o'tgan zamon sifatdoshining chuqurroq tahlilini o'tkazish uchun uning evolyusiyasi bilan bog'liq tarixiy materiallar ham jalb etilib, qiyosiy-tarixiy usul qo'llanildi.

Bitiruv malakaviy ishida amalga oshirilgan tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, muallif sifatdoshlar bo'yicha mavjud umumnazariy tadqiqotlarga tayanib, o'tgan zamon sifatdoshini qamrovli tahlilga tortadi. Bunday qamrovli tadqiqot o'tgan zamon sifatdoshining fe'liy va ismiy xususiyatlarini qiyosiy planda ko'rib chiqishga imkon beradi va boshqa eroniy tillarda mazkur hodisani kengroq va tizimli tarzda o'rganishga turtki bo'ladi.

Tadqiqot natijalari fors tilining nazariy va amaliy grammatikalarining tegishli bo'limlarini yozishda, darslik va o'quv qo'llanmalarni tuzishda va dars mashg'ulotlarini o'tkazishda yordam bera oladi. Shuningdek, tadqiqot materiallaridan eroniy tillar qiyosiy grammatikalarini yozish uchun ham yaxshi ko'makchi bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida zamonaviy eron yozuvchilarining badiiy asarlari, matbuot, publisistik va ilmiy uslubga oid turli mavzulardagi matnlardan olingan faktologik materialga tayanildi. Manbalar, asosan, o'tgan asrning 90-yillariga va joriy asrning boshiga taalluqli. Faktologik materiallar yig'ish uchun turli izohli lug'atlar (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatiga qarang) va Yu.A. Rubinchik tahriri ostidagi ikki jildlik Forscharuscha lug'atdan (PRS, 1983) foydalanildi. Yig'ilgan misollar soni 500dan ortiq bo'lib, o'tgan zamon sifatdoshi qo'llanishining turli holatlariga oid.

Bitiruv malakaviy ishida misollar fors-arab alifbosi asosidagi yozuvda beriladi. Talaffuz bilan bog'liq xususiyatlarni ko'rsatish uchun esa fors tili uchun qo'llanadigan xalqaro transkripsiyadan foydalaniladi. Tadqiqot matni tarkibi kirish, ikki tadqiqot bobi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. O‘TGAN ZAMON SIFATDOSHI FE’LNING NOANIQ SHAKLI

1.O‘tgan zamon sifatdoshining o‘rganilganlik darajasi

Bitiruv malakaviy ishining bu bobida hozirgi zamon fors tilida (HZFT) o‘tgan zamon sifatdoshining o‘rganilganlik darajasi qisqacha ko‘rib chiqiladi. Turli mualliflarning so‘zlarning mazkur leksik-grammatik kategoriyasini ajratish va tahlil qilishga oid fikrlari bayon qilinadi.

O‘tgan zamon sifatdoshining fe’l va boshqa so‘z turkumlari bilan leksik-grammatik aloqasiga doir muammo hamisha fors tili tadqiqotchilarining diqqatini o‘ziga tortib keladi. Mazkur muammoning murakkabligiga sifatdoshlar mohiyati u yoki bu darajada yoritib berilgan grammatik adabiyotlarning ba’zilari bilan tanishish orqali guvoh bo‘lish mumkin. Masalan, V.S. Rastorguevaning (Rastorgueva,1953) asarida sifatdoshlar tarkibiga faqat o‘tgan va kelasi zamon sifatdoshlari kiritiladi. Hozirgi zamon sifatdoshlarining uchchala turi tegishli qo‘shimchalar bilan yasaladigan sifat va ot turkumiga oid so‘zlar qatoridan o‘rin oladi. O‘tgan zamon sifatdoshlarining esa faqat ravishdosh va kesim funksiyasini bajara olishi qayd etiladi (Rastorgueva,1953, 645-646 b.).

Yu.A. Rubinchik o‘zining “Sovremenniy persidskiy literaturniy yazik” nomli asarida sifatdoshlarni fe’lning noaniq shakllari tizimiga kiritadi va o‘tgan zamon sifatdoshigina fe’liiy xususiyatlarni yaqqol namoyon qilishini ta’kidlaydi (Rubinchik, 2001, 275-285b.).

L.S. Peysikovning “Voprosi sintaksisa persidskogo yazika” monografiyasida “sifatdosh” terminini faqat o‘zida fe’l va sifat xususiyatlarini jamlagan –e qo‘shimchasi yordamida yasaluvchi shakllarga nisbatan qo‘llash mumkin, degan fikr ilgari suriladi. Muallif ayni paytda bu terminni barcha o‘tgan zamon sifatdoshlariga emas, balki faqat sifatdoshli oborotlar tashkil eta oluvchi o‘tgan zamon sifatdoshlarigagina nisbatan qo‘llaydi (Peysikov, 1959, 362 b.). Lekin L.S.Peysikov fe’ldan yasaladigan mazkur shakllar haqida yakuniy xulosa bermay, ularni chuqur o‘rganib chiqish zarurati borligini qayd etadi.

Oxirgi yillarda ilmiy jamoatchilik diqqatiga havola etilgan ishlar ichida “Osnovi iranskogo yazikoznaniya” (Osnovi..., 1982) kollektiv monografiyasini alohida eslash lozim. Monografiyada fors, tojik va dariy tillarining sifatdosh shakllari qisqacha tavsiflanadi. Sifatdoshlar fe’ldan yasalgan ismiy turkum sifatida ta’riflanadi va ularning ayrim sintaktik vazifalari tavsiflanadi.

Eronda nashr etilgan fors tili grammatikalarida sifatdoshlar turli terminlar bilan nomlanadi. Sifatdoshlarning ayrim turlari turli mualliflar tomonidan ikki-uch xil nomlanishini kuzatish mumkin. Masalan, o’tgan zamon sifatdoshi **صفت مفعولى** **اسم مفعول** terminlari bilan nomlanadi.

O’tgan zamon sifatdoshini u yoki bu termin bilan nomlash grammatika muallifining sifatdoshlar kategoriyasiga yondashuvidan kelib chiqadi. Masalan, bunday fikrlarni Muxammad Javod Mashkurning asarida ko’rish mumkin. Muallif sifatdoshlar ish-harakat bajaruvchini shaxsni yoki ish-harakat yo’naltirilgan shaxs/predmetni aniqlaydi, degan fikrni bildiradi (Mashkur, 1959, 27b.). O’tgan zamon sifatdoshi A. Humoyunfarruxning grammatikasida fe’ldan yasalgan ismiy turkum sifatida ko’rsatiladi (Humoyunfarrux, 1945). Parviz Notel Xonlariyning “Fors tili tarixi” nomli 2 jildlik asarida ham o’tgan zamon sifatdoshi fe’ldan yasalgan ismiy shakl sifatida e’tirof etiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar o’tgan zamon sifatdoshini o’rganishni davom ettirish lozimligiga ishora qiladi va biz o’z bitiruv malakaviy ishimizda imkon doirasida buni amalga oshiramiz.

2.O'tgan zamon sifatdoshining fe'l bilan leksik-semantik bog'liqligi

O'tgan zamon sifatdoshi ikkiyoqlama mohiyatga ega: morfologik (ya'ni, ularni grammatik kategoriyalari bo'yicha xarakterlovchi), shuningdek, sintaktik planlarda ular ham fe'l, ham sifat/ot turkumlariga taalluqlilik alomatlarini namoyon eta oladi. Demak, o'tgan zamon sifatdoshining grammatik va semantik jihatlardan turli tumanligi ularni aniq va tizimli tasniflash imkonini chegaralaydi. Shuning uchun ham eronshunoslar orasida sifatdoshlar tarkibi borasida yakdillik kuzatilmaydi.

Sifatdoshga fe'ldan yasaladigan alohida shakl tarzida qarash bitiruv malakaviy ishimizning tayanch nuqtasi hisoblanadi. Fe'ldan yasaladigan bunday shakllarda turli xususiyatlarning jamlanganligi hamda ular tomonidan keng funksional imkoniyatlarning namoyon etilishi o'tgan zamon sifatdoshini boshqa fe'liy yasama so'zlar, ya'ni fe'liy so'z yasovchi asoslarga so'z yasovchi affiks va poluaffikslarni qo'shish orqali yasaladigan so'zlardan ajratib turadigan belgilar sifatida e'tirof etilishi mumkin. O'tgan zamon sifatdoshining qator fe'liy xususiyatlarni namoyon etib sifatdosh tarzida ham, tegishli grammatik belgilar asosida ot va sifat tarzida ham qo'llanishi kuzatiladi. Bu tilda markaziy kategoriyalardan biri hisoblanadigan fe'lning xususiyatlari juda keng qamrovli ekanligi va shu asosda fe'l tizimida atributiv shakllarning mavjud bo'la olishi imkoniyati va xatto, zaruratidan kelib chiqadi. (Sazonova, 1975, 94 b.). Turli so'z turkumlarida turlicha namoyon bo'ladigan asosiy tafakkur kategoriyalari - "substansiya" va "xususiyat"larning bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi nuqtai nazaridan fe'l va sifat "xususiyat" kategoriyasida birlashadi. Va aynan shu asosda ular kategorial ma'nosi "substansiya" bilan bog'liq bo'lgan ot so'z turkumiga qarshi turadi(Ufimseva, 1974, 93b.). Ammo "xususiyat" tafakkur kategoriyasi ostida jamlangan fe'l va sifat turkumlari belgi-xususiyatni turli tarzda: fe'l jarayon tarzida, sifat esa doimiy, ya'ni jarayon bilan bog'liq bo'lmagan tarzda ifodalaydi. Demak, fe'l tizimida mavjud bo'lishi mumkin va zarur bo'lgan atributiv shakllar (bu o'rinda o'tgan zamon sifatdoshi) belgi-xususiyatni jarayon bilan bog'liqlikda ifodalaydi. O'tgan zamon sifatdoshidagi bunday xususiyat faqat uning fe'l tizimi

bilan semantik aloqasi to'liq uzilgandagina yo'qolishi mumkin. Ammo shuni ham qayd etish lozimki, semantik aloqaning to'liq uzilishi tushunchasi nisbiy xarakterga ega, zero zarur holatlarning deyarli barchasida sifatdosh shaklining bevosita yoki bilvosita semantik vorisligi osongina tiklana oladi. O'tgan zamon sifatdoshining bunday o'zgarishlarga moyilligi xarakterini aniqlash uning tarkibini belgilash imkonini beradi. O'tgan zamon sifatdoshi ustidagi keyingi tadqiqotlar uning gap tarkibida imkoni bo'lgan pozisiyalarda qo'llanishi xakteri bilan bog'lanishi lozim. Bundan tashqari, o'tgan zamon sifatdoshining hozirgi zamon fors tilida qo'llanishi qamroviga ham e'tiborni qaratish kerak, chunki bu ma'lum ma'noda o'tgan zamon sifatdoshining tilda rivojlanish tamoyilini ham belgilab bera oladi.

O'tgan zamon sifatdoshi fe'l bilan semantik jihatdan bog'liq. U ish-harakatni bildiradi va uni belgi tarzida namoyon etadi. Fors tili tadqiqotchilari til hodisalarini tahlil etishda semantik omilning ahamiyatini belgilashga turlicha yondashdilar. L.S. Peysikovning fikrich, tahlilda asosiy rolni semantik omil emas, balki ularda fe'l bilan qiyoslash mumkin bo'lgan ish-harakat, jarayonga oid belgilarning mavjudligi yoki yo'qligi o'ynaydi va aynan shunga asoslanib, bunday belgilarga ega bo'lmagan shakllar sifatdoshlar tizimidan chiqarilishi lozim (Peysikov, 1959, 362 b.).

O'zgacha qarashni Yu.B. Potapovning nomzodlik dissertatsiyasida ko'rish mumkin: "Analitik til bo'lgan fors tilida formal ko'rsatkichlarning miqdori cheklangan va til hodisalarini tahlil qilishda ko'pincha aynan semantik omil birinchi o'ringa o'tadi hamda sintaktik omil bilan birgalikda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi" (Potapov, 1986, 27.) (iqtibos tarjimai bizniki).

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarning har ikkalasi ham ishonch uyg'otishiga qaramay, turli omillarning so'zlarning leksik-grammatik guruhlarini ajratish va ularning xususiyatlarini aniqlashda bunday keskin qarama-qarshi qo'yilishi yoki ularning birortasini mutlaqlashtirish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Yetakchi tilshunos olimlardan biri bo'lgan V.M. Alpatovning fikricha, so'zlarning u yoki bu leksik-grammatik guruhini tasniflash turli omillarni majmuaviy jalb etish

(semantik, morfologik, sintaktik va b.) orqali amalga oshirilishi va bu omillar bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmasligi lozim (Alpatov, 1986, 37-6 b.). Chunki dunyoda faktlari qaysidir omilning talablariga to'la javob beradigan va mazkur omil asosida tavsiflanadigan birorta ham til yo'q. Omillarning majmuaviy qo'llanishigina u yoki bu til hodisasining aniq mohiyatini tavsiflash imkonini bera oladi.

Hozirgi zamon fors tilida morfologik sathda so'zlarning turkumlari va alohida leksik-grammatik kategoriyalarini ajratishning imkoniyatlari cheklangan va aynan shu holat o'tgan zamon sifatdoshini tahlil etishda zikr etilgan omillarni qaysi ketma-ketlikda qo'llashni belgilab berdi.

Yuqorida zikr etilganidek, biz fors tilida sifatdoshlarning uch turini ajratishni yoqlaydigan nuqtai-nazarga ergashamiz. Ammo aytish lozimki, fors tilida sifatdoshlarning har uchchala turini barcha fe'llardan ham yasab bo'lmaydi. Ular orasida faqat o'tgan zamon sifatdoshigina bunday cheklovdan holi, ya'ni uni fe'ning barcha tarkibiy va leksik-semantik turlaridan yasash mumkin.

Qiziqarli holat sifatida shuni qayd etish mumkinki, eronlik olimlar sifatdoshlarning yasalishidagi bunday holatni tilning nomukammalligi sifatida e'tirof etib, sifatdoshlar qatorini sun'iy tarzda yasalgan shakllar bilan to'ldirishni ham taklif etganlar. Masalan, A. Kasraviy o'zining "Sof til" nomli maqolasida hozirgi zamon sifatdoshlari ifodalaydigan ma'nolar xilma-xilligini qayd etib, fors sifatdoshlarining to'ldirilgan ro'yxatini taklif etadi va bu ro'yxatga holat fe'llaridan yasalgan shakllarni ham kiritadi (Kasraviy, 1943, 12 b.). Muallif bunday yondashuvni osongina asoslaydi: sifatdoshlarning keng qo'llanadigan qaysidir turi mavjudmi, demak uning uchchala turi to'liq tiklanishi lozim. A. Kasraviyning fikricha, bu fors tilini o'rganishni ancha yengillashtiradi va xorijiy so'zlarning kirishiga to'siq bo'lib, sof fors tilining rivojlanishiga keng yo'l ochadi (Kasraviy, 1943, 13 b.). Ammo bunday to'ldirishlarning haqiqiyligiga shubha uyg'onadi. Sifatdoshlarning fors tilida mavjud tarkibi uzoq davr mobaynidagi til rivojlanishining natijasidir va bunday sun'iy aralashishlar til tomonidan to'liq

qabul qilinmasa kerak. Bunga Erondagi Til va adabiyot akademiyalarining faoliyati natijalari bilan qisqacha tanishib, ishonch hosil qilish mumkin.

Akademiya namoyondalari asosan, fors tilidan yevropa tillari va arab tilidan kirgan soʻzlarni haydash va chet el soʻzlarini yangi forsiy yasamalar yoki arxaik soʻzlar bilan almashtirish bilan shugʻullanganlar. Ijtimoiy-siyosiy, harbiy va baʼzi boshqa sohalarga oid terminlarni yasashda va isteʼmolga kiritishdagi muayyan muvaffaqiyatlarga erishilganiga qaramay, hozirgi zamon fors tili lugʻat tarkibining zamonaviy holati shuni koʻrsatadiki, sunʼiy tarzda yasalgan soʻzlarning aksariyati isteʼmolga kirmagan.

Shunday ekan, fors tili tadqiqotchilariga sifatdoshlarni feʼl tizimidan chiqarish va ularni mustaqil soʻz yasalishi natijasi sifatida talqin etishga nima toʻsqinlik qiladi? Fors sifatdoshlarining feʼl bilan leksik-semantik va grammatik bogʻliqligi semantik vorislik, feʼlning alohida leksik-grammatik xususiyatlarini namoyon qilishi va nihoyat, funksional sathdagi feʼliy vazifalarini bajara olishi holatlari bilan tasdiqlanadi. Bu koʻproq oʻtgan zamon sifatdoshida namoyon boʻladi. Ammo uning ham boshqa sifatdosh turlari kabi feʼlning mayl kategoriyasiga umuman aloqasi yoʻq. Demak, sifatdoshlar va feʼlning tuslanuvchi shakllari orasida aynan shu asosda chegara oʻtkazish va sifatdoshlarni feʼlning noaniq, yaʼni tuslanmaydigan shakllari sifatida belgilash mumkin. Bitiruv malakaviy ishimizning tadqiqot boblari oʻtgan zamon sifatdoshining semantik oʻziga xosligi va uning funksional-grammatik xususiyatlarini aniqlashga bagʻishlanadi.

II BOB. O‘TGAN ZAMON SIFATDOSHINING FUNKSIONAL-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

1. O‘tgan zamon sifatdoshining umumiy xarakteristikasi.

Hozirgi zamon fors tiliklassik fors tilidan meros qilib olgan o‘tgan zamon sifatdoshi shaklini saqlab qolgan. Mazkur sifatdosh turi fe’lning o‘tgan zamon negiziga –e (klassik fors tilida -a) suffiksini qo‘shish orqali yasaladi va bu imloda *hā-ye havvaz* harfi orqali ifodalanadi:

Fe’lning infinitiv shakli	Fe’lning o‘tgan zamon negizi	O‘tgan zamon sifatdoshi
گفتن “aytmoq”, “demoq”	گفت	گفته “aytgan”, “aytilgan”
رفتن “ketmoq”, “bormoq”	رفت	رفته “ketgan”

Ko‘rib turganimizdek, o‘tgan zamon sifatdoshi uchun so‘z yasovchi asos bo‘lib fe’lning o‘tgan zamon negizi xizmat qiladi va u avvalboshdan sifatdosh turiga o‘tgan zamon ma’nosini kiritadi. Shuning uchun o‘tgan zamon negizi o‘tgan zamon sifatdoshining grammatik ma’nosi va tarkibiy o‘ziga xosligini belgilovchi omillar orasida birinchi o‘ringa qo‘yiladi.

2. O‘tgan zamon sifatdoshining fe’lning turli tarkibiy turlaridan yasalishi

O‘tgan zamon sifatdoshini sifatdoshlarning boshqa turlaridan ajratib turuvchi keyingi xususiyati uning fe’lning barcha tarkibiy turlaridan bimalol yasalishidir, ya’ni o‘tgan zamon sifatdoshini fe’lning turli tarkibiy turlaridan yasalish imkoniyatiga to‘sqinlik qiladigan hech qanday cheklov yo‘q. Fors tilining fe’llari uch tarkibiy turga ajratiladi:

Sodda fe’llar	گفتن “aytmoq”, “demoq” رفتن “ketmoq”, “bormoq”
Prefiksli fe’llar	برداشتن “ko‘tarmoq”, “olmoq” در آوردن “chiqarmoq”
Qo‘shma fe’llar	هرف زدن “so‘zlamok”, “gapirmok” شروع کردن “boshlamok”

Mazkur tasnif deyarli barcha fors tili tadqiqotchilari tomonidan yakdillik bilan qabul qilingan va fors tili fe'lining taribiy turlari haqida to'liq tasavvur beradi. Aytish lozimki, fors tiliga va uning alohida xususiyatlari ustida amalga oshirilgan tadqiqotlar fe'lining har bir tarkibiy turini yanada aniqroq tasniflash imkonini beradi (masalan, Rubinchik, 2001). Fe'ning har bir tarkibiy turini yana alohida guruhchalarga bo'lishni mazkur tarkibiy turning so'z yasash va leksik-grammatik xususiyatlarini hisobga olib davom ettirish mumkin. Biz o'tgan zamon sifatdoshining tarkibiy turlari haqida so'z yuritganda yuqorida keltirilgan tasnifga amal qilamiz. O'tgan zamon sifatdoshini tarkibiy turlarga ajratish nazarimizda anchagina qiziqarli savolga, ya'ni o'tgan zamon sifatdoshining barcha tarkibiy turlari ad'ektivatsiyaga uchraydimi, degan savolga javob topishda yordam berishi mumkin.

2.1. Sodda fe'llardan yasalgan o'tgan zamon sifatdoshi

پيچيده “buralgan” -- پيچيدن “burilmoq” fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi,
جويده “chaynalgan” -- جويدن “chaynamoq” fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi,
رسيده “etib kelgan”, “etilgan” -- رسيدن “etmoq” fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi,

مانده “qolgan” -- ماندن “qolmoq” fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi,
افتاده “yiqilgan”, “tushgan” -- افتادن “yiqilmoq, tushmoq” fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi,

ترسيده “qo'rqan” -- ترسيدن “qo'rqmoq” fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi,
چسبيده “yopishgan” -- چسبيدن “yopishmoq” fe'lining o'tgan zamon sifatdoshiva b.

Ularning jumla tarkibida ishlatilishiga e'tibor bering:

ماننده آيينه امواج رسيده را منعكس مينمايد Yetib kelgan to'lqinlarni oyna kabi aks ettiradi (EH, 19.03.2012., 16 b.).

مانده رانالهوميشنشدى Suvsiz qolgan daraxtlarning nolasini eshitarding (ADS, 61 b.).

Ko‘rib turganimizdek, o‘tgan zamon sifatdoshini sodda fe’lning biror bir derivativ va leksik-grammatik turidan yasashda hech qanday cheklov yo‘q. O‘zi uchun asos bo‘lgan fe’l bilan taqqoslaganda o‘tgan zamon sifatdoshining urg‘u tarkibida ham o‘zgarish kuzatilmaydi:

goftan – gofte, rasidan – raside, raftan – rafte

O‘tgan zamon sifatdoshining keyingi ikki tarkibiy turi, ya’ni prefiksli va qo‘shma fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshining urg‘u tarkibida esa o‘zgarishlar yuzaga keladi.

2.2. Prefiksli fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshi

Prefiksli fe’llar fors tilidagi fe’llarning boshqa tarkibiy turiga taalluqli. Mazkur fe’llarning o‘ziga xosligi shundaki, ular tarkibida tarixan old ko‘makchi va ravishlarga borib taqaluvchi prefikslar mavjud. To‘plangan materialimiz o‘tgan zamon sifatdoshining bunday fe’llardan bemalol yasalishini ko‘rsatadi:

برآفتاده -- برآفتادن “ishdan chiqmoq” fe’lining o‘tgan zamon sifatdoshi,
برافروخته -- برافروختن “alangalanmoq” fe’lining o‘tgan zamon sifatdoshi,
درمانده -- درماندن “ilojsiz qolmoq” fe’lining o‘tgan zamon sifatdoshi,
وابسته -- وابستن “bog‘lamoq” fe’lining o‘tgan zamon sifatdoshi va b.

Prefiksli fe’llar o‘zining tarkibi va ishlatilishiga ko‘ra yasama so‘zlar hisoblanadi va prefiksga tushadigan asosiy urg‘udan tashqari oxirigi bo‘g‘inga tushadigan ikkinchi darajali urg‘uga ham ega bo‘ladi:

dar-āmixtan “aralashtirmoq”, ***bar-xāstan*** “turmoq”

Prefiksli fe’llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshlarida ham shunday urg‘u tarkibi saqlanib qoladi:

dar-āmixte “aralashtirilgan”, ***bar-xāste*** “o‘rnidan turgan”

Lekin shuni alohida qayd etish kerakki, substantivatsiya va ad’ektivatsiyaga uchragan o‘tgan zamon sifatdoshlarida bunday urg‘u tarkibi buziladi: prefiks sodda fe’l bilan birlashib ketadi, ya’ni ular orasidagi pauza yo‘qolib, asosiy urg‘u bunday yasama so‘zning oxirigi bo‘g‘iniga o‘tadi:

Darmānde“bechora”, *farāvarde*“mahsulot”

Qiyoslang:

Nafasimni bo‘g‘ib چیزیکه نفسم را برید چشمهای یفکرده و برافروخته اش بود qo‘ygan narsa uning shishib ketgan va qizarib ketgan ko‘zlari edi (PDN, 248 b.).

O‘qimishli, hamma serگزشتهای جوان تحصیل کرده و حسرت زده و واخرده narsadan ko‘ngli qolgan yigitning sarguzashtlari(SAF, №23, 65 b.).

Sof fe‘liy qo‘llanishda, ya‘ni fe‘lning aniq mayl shakllarini yasashda prefiksli fe‘lga xos urg‘u tarkibi saqlanib qoladi:

Shunday past darajaga tushib ketgan rejim mamlakatni boshqarayotgan bir paytda... (K, 11.04.2009, 2 b.).

Ularning har ikkisi o‘zlarining naqshlari هر دو در قالب نقش خویش فرو رفته بودند qolipiga cho‘mib qolgan edilar (EH, №92987, 54 b.).

2.3 Qo‘shma fe‘llardan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshi

Fors tilidagi fe‘llarning bu tarkibiy turi miqdoriy jihatdan sodda va prturidaefiksli fe‘llardan ancha ustun turadi va buning ustiga qo‘shma fe‘llarning tarkibi muntazam ravishda to‘lib boradi. Qo‘shma fe‘l sodda fe‘llarning ismiy so‘z turkumiga oid so‘zlar bilan birikmasidan iborat bo‘ladi. Fe‘llarning mazkur tarkibiy turida uning fe‘l va ism qismlari o‘zlarining mustaqil urg‘usini saqlab qoladi va o‘zaro kichik pauza bilan ajratiladi. Yu.A.Rubinchikning yozishicha, asosiy urg‘u umumiy semantik yo‘nalishni ifodalovchi ismiy qismga, ikkinchi darajali urg‘u esa sodda fe‘lga tushadi (Rubinchik, 2001, 234b.). Ma‘lumki, fors tili so‘zdagi urg‘u o‘rniga ko‘ra turg‘un urg‘uli tillar guruhiga kiradi. Ba‘zi istisnolarni hisobga olmaganda fors tilida urg‘u doimo so‘zning oxirigi bo‘g‘iniga tushadi(Polyakov, 1988, 186-206 bb.). Qo‘shma so‘zlar ham bundan mustasno emas. Kelib chiqishidan (ismi yoki fe‘liy) qat‘iy nazar, ularda ham urg‘u doimo oxirigi bo‘g‘inga tushadi (Rubinchik, 2001, 234 b.). Demak, shu asosda qo‘shma so‘z va qo‘shma fe‘l o‘zlarining urg‘u tarkibiga ko‘ra farqlanadi.

Yu.A.Rubinchikning ta'kidlashicha, qo'shma fe'llarning aniq maylga oid analitik shakllarida qo'llanuvchi o'tgan zamon sifatdoshlarida urg'u ismiy qismga tushadi va u o'z tarkibidagi sodda fe'ldan kichik pauza bilan ajratiladi: ***tahsil karde budand, ešyāl šode ast, āsib dide-and*** (Rubinchik, 2001, 245 b.)

Ammo qo'shma fe'ldan yasalgan o'tgan zamon sifatdoshlari substantiv va ad'ektiv funksiyalarda qo'llanganda asosiy urg'u sifatdosh shaklining oxirigi bo'g'iniga o'tadi va ismi y – fe'liy qismlar orasidagi pauza yo'qoladi: *tahsilkarde* “o'qimishli”, *ešyālšode* “egallangan”, *āsibdide* “zararlangan”, “talofot ko'rgan”. Urg'uning bunday tarkiblarda oxirigi bo'g'inga o'tishi va o'rtadagi kichik pauzaning yo'qolishi ularning qo'shma so'zga aylanishidan darak beradi (Rubinchik, 2001, 437 b.). Shuning uchun qo'shma fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshi haqida so'z yuritganda ularning funksiyasini, ya'ni qanday funksiyada qo'llanayotganligini farqlash lozim bo'ladi.

Yuqorida aytilganidek, qo'shma fe'llarning tarkibi ikki a'zoli: ismiy qism + sodda fe'l. Ammo qo'shma fe'llar tarkibida ismiy qismi old ko'makchili bo'lganlari ham ajratiladi. Bu old ko'makchi qo'shma fe'lning tarkibiy-semantik xususiyatlarida aks etadi va tarkibiy qismlar orasidagi o'zaro munosabatlarga ta'sir o'tkazadi. Mazkur belgiga ko'ra qo'shma fe'llarning o'zini ham ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Ismiy qismi old ko'makchisiz qo'shma fe'llar.

2. Ismiy qismi old ko'makchili qo'shma fe'llar.

O'tgan zamon sifatdoshlari har ikkala guruhdagi fe'llardan bimalol yasalishi mumkin:

Ismiy qismi old ko'makchisiz qo'shma fe'llardan:

بوگرفتَن -- بوگرفته “achimoq”, “aynimoq” fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi, صورت شکست خوردن — شکست خورده “yutqazmoq” fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi, صورت گرفتَن — صورت گرفته “yuz bermoq” fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi va b.

Ismiy qismi old ko‘makchili qo‘shma fe‘llardan:

“ishdan chiqmoq” fe‘lining o‘tgan zamon sifatdoshi, -- **از کار افتادن** -- **از کار افتاده** **به دست** “sovrmoq” fe‘lining o‘tgan zamon sifatdoshi, -- **برباد زده** **برباد زدن** -- **آورده** “qo‘lga kiritmoq” fe‘lining o‘tgan zamon sifatdoshi va b.

Qo‘shma fe‘ldan yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshi haqida gapirishni ta‘minlovchi urg‘u tarkibi faqatgina uning analitik shakllarni yasashida yoki kesim vazifasini mustaqil bajarishida mavjud bo‘ladi:

شدند هیئت از افسران ارتش ایران دیروز از ایرلاند **عبور کرده** و به طرف واشینگتن Eron armiyasi zobitlaridan iborat hay‘at kecha Irlandiyadan **o‘tdi** va Vashingtonga jo‘nab ketdi (E, 12.04.2012, 4 b.)

Angliya konservatorlari ... **خورده** **اندشکست** **محافظه** **کاران** **انگلیس** ... **yutqazdilar** (EH, № 92345, 7 b.)

“Xotiram shu qadar **susayib ketdimi?**” **حافظه** **ام تا این حد** **از کار افتاده** **است**

Qo‘shma fe‘llarning substantiv va ad‘ektiv funksiyalarda qo‘llangan o‘tgan zamon sifatdoshlari esa boshqacha urg‘u tarkibiga ega bo‘ladi:

“Zo‘rg‘a **خواستم** و **با چشمهای خواب آلوده** و **یفکرده** **سر سفره** **آدمبسختی** **از جایم** **بر** o‘rnimdan turdim va uyqusiragan va **shishib ketgan** ko‘zlarim bilan dasturxon ustiga keldim” (EH, №93246, 5 b.).

“Ha og‘a! Bu dunyoda kuchdan qolgan **بلی آقا! مائیم توی دنیا و یک مادر** **از کار افتاده**. onamdan boshqa hech kimim yo‘q” (PDN, 502 b.).

Biz yuqorida qayd etganimizdek, sifatdoshlar mohiyatiga yondashuvda barcha turdagi tahlil mezonlaridan majmuaviy foydalanish zarur va quyida endi o‘tgan zamon sifatdoshining asos fe‘llar bilan semantik bog‘liqligini saqlashi masalasiga e‘tiborimizni qaratamiz.

3. O‘tgan zamon sifatdoshining asos fe‘l bilan semantik bog‘liqligi

Analitik fe‘l shakllaridagi ishtiroki ko‘p jihatdan o‘tgan zamon sifatdoshining asos fe‘l bilan to‘liq semantik mutanosibligini ta‘minlaydi. Shuning uchun to‘liq ishonch bilan aytish mumkinki, o‘tgan zamon sifatdoshi fe‘lning qanday semantik turidan yasalmasin, doimo asos fe‘lning semantik tarkibini to‘la

aks ettiradi. Biz bu o‘rinda monosemantik va bisemantik fe’llarning o‘tgan zamon sifatdoshlarini tahlil doirasiga ataylab tortmadik, zero ular orasida semantik mutanosiblikka juda oson shohid bo‘lish mumkin. Polisemantik fe’llarning o‘tgan zamon sifatdoshlariga esa bir necha misol keltiramiz:

افکنده fe’lga xos vazifalarda qo‘llanganda kontekstual zaruratga qarab o‘zi uchun asos bo‘lgan **افکندن** fe’lining 9 ma’nosining barchasini aks ettira oladi (PRS, 68 b.)

افتاده fe’lga xos vazifalarda qo‘llanganda kontekstual zaruratga qarab o‘zi uchun asos bo‘lgan **افتادن** fe’lining 6 ma’nosining barchasini aks ettira oladi (PRS, 104 b.)

شکسته fe’lga xos vazifalarda qo‘llanganda kontekstual zaruratga qarab o‘zi uchun asos bo‘lgan **شکستن** fe’lining 6 ma’nosining barchasini aks ettira oladi (PRS, 108 b.)

Demak, o‘tgan zamon sifatdoshlari fe’lga xos funksiyalarda qo‘llanganda asos fe’l bilan semantik mutanosibligini to‘liq namoyon qiladi. Ammo o‘tgan zamon sifatdoshlari, biz yuqorida qayd etganimizdek, ismiy funksiyalarda ham qo‘llanadi. Ob’ektiv qo‘llanishda o‘tgan zamon sifatdoshlarida belgi xususiyat yo‘nalishi rivojlanib, asos fe’llarda qayd etilmagan ma’nolar kasb etilishi mumkin. Masalan:

پیچیدن asos fe’lining 9 ma’nosining (PRS, 323 b.) barchasini saqlaydigan o‘tgan zamon sifatdoshi fe’lda qayd etilmagan ma’no yo‘nalishini namoyon etadi: “bukilgan”;

برآمدن asos fe’lining 6 ma’nosining (PRS, 195 b.) barchasini saqlaydigan o‘tgan zamon sifatdoshi shu asosda fe’lda qayd etilmagan ma’no yo‘nalishini namoyon etadi: “shishib ketgan”.

فرو رفتنه o‘tgan zamon sifatdoshi ob’ektiv qo‘llanishda fe’lda qayd etilmagan qo‘shimcha ma’no yo‘nalishini namoyon etadi: “botib ketgan”, “kirtaygan”.

دم گرفته o'tgan zamon sifatdoshi (asos fe'l گرفتن (PRS, 323 b.) 5ma'nodan tashqari faol ad'ektiv qo'llanishi orqasidan qator qo'shimcha ma'nolar kasb etgan: "chirigan", "buzilgan", "aynigan", "sasigan".

Shunday qilib, o'tgan zamon sifatdoshi asos fe'l semantikasi bilan deyarli to'liq bog'liqligini saqlab qoladi. Semantik tarkibning o'zgarishi o'tgan zamon sifatdoshining ismiy funksiyalarda qo'llanishi asosida qo'shimcha ma'nolar kasb etish tomonigagina qarab amalga oshadi.

O'tgan zamon sifatdoshining struktur va semantik tahlil mezonlari asosida amalga oshirilgan umumiy tavsifi sifatdoshlar mazkur turining fe'l tizimi bilan bog'liqligi borasida ayrim o'ziga xosliklarni aniqlagan bo'lsada, bu hali uning mohiyati haqida to'liq tasavvur bermaydi. Shuning uchun tadqiqotlarimizni o'tgan zamon sifatdoshining fe'l bilan grammatik bog'liqligi darajasini aniqlashga qaratib, davom ettiramiz va shu asosda bunday yasama so'zlarning fe'l tizimiga tegishliligi yoki tegishli emasligi haqidaga savolga javob izlaymiz. Tadqiqotlarimizning keyingi bo'limlari aynan shu bilan bog'liq masalalarni yoritishga bag'ishlanadi.

4. O'tgan zamon sifatdoshining fe'liy xususiyatlari

Fors tili grammatikasini umumiy tarzda yoritishga qaratilgan asarlar va fors tili grammatikasining alohida masalalarini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlar mualliflari ko'pchiligi shuni qayd etadilarki, sifatdoshlar orasida aynan o'tgan zamon sifatdoshlari o'zida fe'liy xususiyatlarni yorqinroq namoyon etadi (Rustamova, 1954; Peysikov, 1959; Abduraxmonov, 1983; Potapov, 1986; Voxidov, 1990, Rubinchik, 2001). Sifatdoshlarning bu turiga zamon, o'timlilik o'timsizlik, fe'liy boshqaruvga qodirlik kabi verbal ma'no va xususiyatlar xosdir. Bundan tashqari, o'tgan zamon sifatdoshida ayrim boshqa fe'liy xususiyatlar ham mavjud va ular haqida quyida so'z yuritiladi. Fe'lning infinitiv shaklidagi kabi o'tgan zamon sifatdoshida mayl va shaxs-son kategoriyalarining yo'qligi uni fe'lning noaniq shakllari qatoriga kiritishga imkon beradi.

Eronlik dasturnavislar o'tgan zamon sifatdoshini odatda grammatikaning ot so'z turkumi haqidagi boblarida tavsiflaydilar. Masalan, A. Humoyunfarrux uni ot turkumida tavsiflaydi va اسم مفعول deb nomlaydi (Humoyunfarrux, 1958, 76-86 bb.), boshqalar esa sifat yoki fe'l turkumiga taalluqli hisoblaydilar va tegishliha اسم فاعلى ماضى yoki مفعولى صفت atamalarini beradilar (Mashkur, 1959, 26-27 bb.; Dabir Sayyoqiy, 1966, 15 b.).

4.1. Zamon ma'nosi

Tilshunoslikda umumiy tarzda e'tirof etilishi bo'yicha sifatdosh sifatdan farqli ravishda ish-harakatdan kelib chiquvchi belgi xususiyatni zamonga bog'langan holda ifodalaydi, ya'ni sifatdosh zamon ma'nosiga ega bo'ladi. Lekin shunga qaramay, hali bu sifatdoshdagi zamon va fe'ldagi zamon bir-biriga to'liq mos keladi, degan ma'noni bildirmaydi. Eng avvalo shuni qayd etish lozimki, fe'ning tuslanuvchi shakllari nutqning maqsadini ko'rsatuvchi mayl kategoriyasiga ega. Mayl kategoriyasi fe'llarda shaxs-sonli, ya'ni predikativ shakllar bilan bog'liq. Predikativ shakllardan tashqarida mayl kategoriyasi mavjud bo'lmaydi.

Mayl kategoriyasi fe'ning tuslanadigan shakllari bilan qanchalik jips bog'liq bo'lsa zamon kategoriyasi ham mayl kategoriyasi bilan shunchalik bog'liq (Vinogradov, 1952, 58 b.). Boshqacha qilib aytganda, maylsiz zamon bo'lmaydi, zero zamon maylning biror turi – aniq mayl, shart-istak mayli va b. - bilan mutanosiblashadi. Xo'sh sifatdoshlarning bu turi ifodalaydigan zamon ma'nosi mayl kategoriyasi bilan qanday aloqaga ega? Bu savolga javob aniq: o'tgan zamon sifatdoshidagi zamon ma'nosining mayl kategoriyasiga hech qanday aloqasi yo'q, chunki mayl kategoriyasi sifatdoshda o'zining ifodasini topmaydi. O'tgan zamon sifatdoshida (boshqa sifatdoshlarda ham) shart-istak va buyruq mayllari ham mavjud emas. Ro'yxatdan tushib qolayotgan mayl turi – aniq maylni fe'ldagi holatdan kelib chiqib sifatdoshga ham taalluqli, deyish mumkindir. Lekin mayl kategoriyasi haqida faqat uning butun tizimi mavjud bo'lsagina gapirish o'rinli bo'ladi.

4.2. O'timlilik o'timsizlik ma'nosi

Biz shu paytgacha yuqorida ataylab o'tgan zamon sifatdoshining verbal xususiyatlari qatorida nisbat kategoriyasi haqida so'z yuritmadik. Endi sifatdoshning bu turida mazkur kategoriyani mavjudligi borasidagi savolga javob berishga harakat qilamiz. Ko'pchilik tadqiqotchilar haqli ravishda fors tilida nisbat kategoriya faqat o'timli fe'llarga xos, deb fikr bildiradilar (masalan, Rubinchik, 2001, 237 b.). O'timli fe'llar aniq va majhul nisbatlarga ega bo'la oladi. Majhul nisbat yasashda o'timli fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshiga شدن "bo'lmoq" ko'makchi fe'lining tegishli shakli qo'shiladi. Aniq nisbat esa o'timli fe'lining o'zi orqali ifodalanadi:

ساخت "qurdi"

ساخته شد "qurildi"

میسازد "quryapti"

ساخته میشود "qurilyapti"

O'timsiz fe'llar bunday nisbat juftligini shakllantira olmaydi, chunki ular ish-harakatni mazkur ish-harakat yo'naltirilgan shaxs yoki predmet haqida tasavvur uyg'otmasdan ifodalaydi. Demak, ular ish-harakat bajaruvchisi va ish-harakat yo'naltirilgan ob'ekt o'rtasidagi munosabatlardagi o'zgarishlarni ko'rsata olmaydi. Bu o'timli fe'llarga xos va faqat ulargina nisbat juftligini shakllantira oladi. O'tgan zamon sifatdoshlarida nisbat kategoriyasini ko'rib chiqish eng avvalo fe'lining yana bir leksik-grammatik xususiyati – o'timlilik o'timsizlilikni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. O'timli fe'llardan yasalgan o'tgan zamon sifatdoshlari odatda aktiv va passiv ma'nolarga ega bo'ladi. Yu.A.Rubinchikning fikricha, bunday o'tgan zamon sifatdoshlarining aktiv ma'nosi ular yordamida fe'lining analitik zamon shakllari yasalganda, ya'ni asosiy morfologik vazifasini bajarishida namoyon bo'ladi, passiv ma'nosi esa substantivatsiya va ad'ektivatsiya uchun asos bo'lib xizmat qiladi (Rubinchik, 2001, 269 b.).

Aktiv va passiv ma'nolarning namoyon bo'lishini qiyoslaymiz.

4.3. O'tgan zamon sifatdoshining morfologik vazifasi

O'tgan zamon sifatdoshlari quyidagi zamon shakllarini yasashda qo'llanadi:

a) o'tgan zamon natijali fe'li(perfekt):

طبیبان به من تهمت زدند و گفتند که مواد زیان آوری به او خورانده ام که روده هایش را سوزانده است
Vrachlar meni asossiz ayblab, meni unga ichaklarini kuydirib yuborgan zararli
modda ichirgan, dedilar (EH, 23.09.12, 16 b.).

O'sha nomussiz xatni این هم درست است که همان نامه بی شرف را خودت نوشته ای
o'zing yozganing ham to'g'rimi? (PDN, 116 b.).

b) o'tgan zamon natijali davom fe'li¹:

خیلی خونسرد گفت والاه گویا این جوان معصومقبلا هرونین میکشیده است و بعد یک آدم احمق ازخودرازی شد

Juda sovuqqonlik bilan dedi: “ E Xudo! Go'yoki bu ma'sum yigitcha ilgari
geroin chekkan va keyinchalik o'z-o'zidan xursand bo'lib yuradigan ahmoq bir
odamga aylanganib qolgan (PDN, 65 b.).

Yangi zelandiyaliklar va از دیر کوسه میخورده اندنیوزلاندی ها و استرالیاییها
avstraliyaliklar qadim zamonlardan akula go'shtini yeb kelganlar(EH, 23.11.09).

v) uzoq o'tgan zamon(plyuskvamperfekt):

Lekin ular turgan joylaridan ولی آنها طوری جا خورده بودند که کسی به کمکش نرفت
shunchalik qotib qolgan edilarki, hech kim unga yordamga bormadi (PDN, 410 b.).

Agar o'sha kuni vaqtim bo'lganida اگر آن روز وقت داشته بودم پدرش را در میاوردم
adabini berib qo'yardim (PDN, 325 b.).

g) o'tgan zamon shart-istak mayli fe'li:

Xuddi mening مثل اینکه افکار مرا خوانده باشد شانه اش را به در تکیه داد و گفت
fikrlarimni o'qib olgandek, yelkasini eshikka suyab, dedi... (ShXP, 70 b.).

کنار جنگلی کنار درختهای دیگر روییده باشد او خودش را مثل تنه درختی میدید. درختی که در
U o'zini xuddi daraxt tanasidek his qilardi. O'rmon chekkasida, boshqa daraxtlar
yonida o'sgan daraxtdek(PDN, 78 b.).

¹Феълнинг бу замон шакли замонавий тилда кенг ишлатилмайди.

O'timli fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshi namoyon qiladigan passiv ma'no ularning quyidagi substantiv va ob'ektiv qo'llanish holatlarida yaqqol ko'rinadi. Ad'ektivatsiya hodisasi mazkur kontekst sharoitida o'timlilik ma'nosining yo'qotilishi natijasida yuz beradi. Bu esa sifatdosh predmetning belgi xususiyatini uning doimiy xususiyati, predmetning ichki holati sifatida ifodallasagina amalga oshadi:

کلمات بریده و نامفهومی بر لب میاورد Qandaydir uzuq-yuluq va tushunarsiz so'zlar aytardi(PDN, 205 b.)

Unga Losanjelesning برایش فرستاده بودنددوتا بوقلمون پخته از خود لوس آنژلس o'zidan ikkita pishirilgan kurka jo'natgan edilar (ShXP, 75 b.)

U sayqallangan va mayda با لبخندی که دندانهای ساییده و ریز او را نشان میدید پرسید tishlarini ko'rsatib turgan tabassum bilan so'radi (ShXP, 92 b.)

Jarrohlik amaliyoti qilingan bemorga suv آب برای مریض عمل کرده بد است zararli(PDN, 431 b.)

O'timli fe'llarning ad'ektivatsiyaga uchragan o'tgan zamon sifatdoshlari muayyan grammatik sharoitlarda faol ravishda ot turkumiga o'tadi va so'zlarning mazkur leksik-grammatik guruhiga tegishli barcha xususiyatlarni namoyon qiladi. Sifatdoshlarning substantivatsiyasi jarayoni real borliq predmet hodisalarining sifat nuqtai nazaridan rivojlanib va kuchayib borayotgan qismlarga ajratilish jarayonini aks ettiradi. Sifatdoshlarning ot turkumiga o'tishining semantik asoslari narsa, predmetlar va ularga xos sifat, xususiyatlar orasidagi jips aloqaga tayanadi. Mazkur sifat xususiyat rivojlanishning muayyan bosqichida, muayyan sharoitlarda ishora qilingan predmetlilik munosabatlarining yagona va doimiy ko'rsatkichiga aylanishi mumkin. Sifat xususiyatni ifodalovchi sifatdoshlar birinchi planga chiqadi va substantivatsiya jarayoni orqali otning o'rniga ishlatiluvchi so'zga aylanadi (o'timli fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshlarining ot turkumiga o'tishida ham ulardagi passiv ma'no ishlatiladi):

Qo'ying, faqat ko'zlaringiz va miyangiz بگذارید فقط چشم و مغضتان نوشته را بخواند yozilganni(xatni)o'qisin (نوشتن "o'qimoq") (EH, 23.09.12. 5 b.)

فرستاده وزارت امور خارجه ایران برای مذاکره در لبنان ملاقت کردوزیر امور خارجه فرانسه در این

هفته با

Fransiya tashqi ishlar vaziri bu haftada muzokaralar o'tkazish uchun Eron tashqi ishlar yakili(jo'nalitilgani) bilan Liviyada uchrashdi.(E, 27.04.08., 3 b.)(فرستادن "jo'natmoq, yubormoq")

شاید هم میخواهند از بعضی گفته هایم در این مصاحبه به عنوان مدارک جرمی علیه من استفاده

کنند

Shoyad ular menga ayblov sifatida bu suhbatdaga ba'zi so'zlarimdan foydalanmoqchidirlar.(E, 12.08.10.) (گفتن "gapirmoq", "so'zlammoq").

O'timli fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshlari tomonidan passiv ma'noni ifodalashning morfologik usuli ham, ya'ni ularga شدن "bo'lmoq", "emoq" ko'makchi fe'lining sifatdosh shaklini شده qo'shish usuli ham mavjud. Bu holatda aktiv ma'no to'laligicha yo'qoladi va faqat passiv ma'no ifodalanadi:

Sigaretini og'zidan oldi, سیگارش را از دهانش در آورد به ته جویده شده آن نگاه کرد uning chaynalgan tag tomoniga qaradi (PDN, 67 b.) ("chaynamoq").

سخن آخر این که منتظر رسیدن نقدهای ادبی جناب عالی نوشته شده در سالهای سیاه میباشیم Yakuniy so'z shuki, janobi oliylarining mudhish yillarda yozilgan adabiy tanqidiy tadqiqotlarining yetib kelishini kutib qolamiz. (ShXP, 89 b.) ("yozmoq")

و به بررسی نمونه های تولیدات آماده شده پرداختیم .. tayyorlangan namunalarini o'rganishga kirishdik. (E, 12.09.10., 7 b.) ("tayyorlamoq")

O'timsiz fe'llar semantikasining spesifikasi, ya'ni ular tomonidan predmet yoki shaxsning o'zida chegaralagan ish-harakatning ifodalanishi sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishlarini ko'rsatish imkonini bermaydi. O'timsiz fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshlari ma'nolarning "aktiv--passiv" qarama –qarshiligiga ega emas. Qiyoslang: رفته "ketgan" --? (رفتن "ketmoq"); نشستن "o'tirmoq" ---? (o'tirgan "o'tirgan" ---? (نشستن "o'tirmoq") va b.: آمدن "kelgan" --? (آمدن "kelmoq"); نشسته "o'tirgan" ---? (نشسته "o'tirgan" ---? (نشسته "o'tirgan")

Maqbara ... چه مطروک به نظر میرسد. شیشه های گرد گرفته و درهای پوسیده...
tashlandiq ko‘rinardi. Chang bosgan oynalaru chirib ketgan eshiklar...(EH,
21.11.10., 7 b.) (“chirimoq” پوسیدن)

Uni fikrga cho‘mgan هر کس مردرا با آن حالت متفکر و افسرده میدید خیال میکرد که...
va so‘lg‘in holatda ko‘rgan har kim o‘ylardiki...(EH, 27.04.09.) (افسردن
“so‘limoq”, “rangi ketmoq”)

Bu misollarda o‘timsiz fe‘llar o‘tgan zamon sifatdoshlarining ad‘ektiv ishlatilish holatlari keltirilgan va ko‘rish mumkinki, sifatdoshlar ham o‘timsiz ma‘noni saqlab qolgan.

Hozirgi zamon fors tilida o‘timli fe‘llar leksik-grammatik guruhiga kauzativ(orttirma darajali) fe‘llar ham kiradi. Bunday fe‘llar fe‘lning hozirgi zamon negiziga –*ān*(ان) qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi va biror shaxs yoki predmetning boshqa shaxs yoki predmetning muayyan ish-harakati yoki holatini yuzaga keltiradigan ish-harakatini ifodalaydi. Kauzativ fe‘llar asosan o‘timsiz fe‘llar hozirgi zamon negizidan yasaladi va ulardagi o‘timsizlik ma‘nosini o‘timlilik ma‘nosiga o‘zgartiradi:

“o‘tkazmoq” اندنگذر -- (گذر HZN) “o‘tmoq” گذشتن

“o‘stirmoq” رویاندن -- (رو HZN) “o‘smoq” رستن

Kauzativ fe‘llar o‘timli fe‘llardan ham yasalishi mumkin va bu holatda ularda biror ish-harakatga undash, majburlash ma‘nosi yuzaga keladi:

“tushuntirmoq” فهماندن --- (فهم HZN) “tushunmoq” فهمیدن

“edirmoq” خوراندن --- (خور HZN) “emoq” خوردن
(2001, 231 b.).

Demak, kauzativ fe‘llar leksik-grammatik guruhiga kiruvchi fe‘llarning barchasi o‘timli fe‘llardir. Kauzativ fe‘llarning o‘tgan zamon sifatdoshlari ham passiv va aktiv ma‘nolarga ega bo‘la oladi. Bu ma‘nolarning namoyon bo‘lish mexanizmi xuddi kauzativ bo‘lmagan o‘timli fe‘llarning sifatdoshlaridagidek, ya‘ni aktiv ma‘no ular ishtirokida fe‘lning analitik zamon shakllari yasalganda kuzatiladi:

Bu qiz bolaligidan boshlab gʻzranded ast. gʻi sxti rnzdnin dushizh az awan kuddi
ogʻir hayot kechirgan. (EH, 12.06.09., 14 b).

Magazin oynasini qogʻoz bilan yoptirgan
edilar. (PDN, 35 b.).

Agar oynomaning oldingi
sonlarini koʻzdan kechirgan boʻlsangiz...(EH, 16.03.11., 22b.).

Passiv maʼno esa bunday sifatdoshlarning substantivatsiyasi uchun asos
boʻladi:

Yurak-yuragidan ba jan va dl va amid gʻshandh gl bnfshh ra bh dhan psr mirixt
tuzalishiga umid qilib, u bolaning ogʻziga binafsha guli qaynatmasidan quyardi.
(ShXP, 74 b.).

gʻshandh substantivati gʻshidin feʼlining oʻtgan zamon sifatdoshi. Uning
oʻziga xos xususiyati shundaki, gʻshandh adʼektivatsiya jarayonini chetlab, ot soʻz
turkumiga oʻtgan (bu haqida qarang: Potapov, 1986, 83-89 bb.). Bu holatda
gʻshandh sifatdoshi substantivatsiyasi uchun gʻshidin feʼlining passiv maʼno uchun
asos boʻlgan.

Yuqoridagi soʻzlar gʻshandh sifatdoshining adʼektiv maʼnosi yoʻq, degani
emas, masalan: gʻshandh “qaynatilgan suv”. Lekin bunday oʻrinda adeʼktiv va
substantiv omonim shakllar haqida soʻz yuritiladi (Potapov, 1986, 89 b.).

Passiv maʼno bu turdagi sifatdoshlarda shdh koʻmakchisini qoʻshish orqali
mustahkamlanadi:

Magazinning toʻsib
gʻshishh yoshandh shdh gʻzrh mrdi aystad va sigar mikshid.
(yopib) qoʻyilgan vitrinasi yonida bir kishi turar va sigareta chekardi. (PDN, 117
b.)

Oʻtimli va oʻtimsiz feʼllar leksik-grammatik guruhlaridan tashqari hozirgi
zamon fors tilida “ikki” nisbatli deb nomlanuvchi feʼllar ham alohida ajratiladi,
masalan: shkstn “sinmoq”/“sindirmoq”, rixtn “quymoq”/“quydirmoq”, amixtn
“aralashtirmoq”/“aralashmoq”. Bunday feʼllar matn zaruratidan kelib chiqib,
oʻtimli yoki oʻtimsiz maʼnolardan tegishlisini ifodalaydi. Bunday feʼllarning
sifatdoshida passiv maʼnoni aniq ifodalash uchun shdh koʻmakchisi qoʻllanadi:

Magazirlarning shisheshay shiksteshay magazeshay ha atumobilshay va sوزانده شده...
sindirilgan oynalari, ag'darilgan va yondirilgan avtomobillar...(ShXP, 143 b.)(
shiksteshay "sinmoq", "sindirmoq")

چوبهائی که برای او تهیه میکنیم اغاب از چوبهائی سوخته شده و یا ریشه درختان قدیمی
Biz unga tayyorlab berayotgan yog'ochning aksariyati kuydirilgan shoxlar
yoki qari daraxtlarning ildizlaridan iborat(PDN, 68 b.)(kuymoq"سوختن",
"kuydirmoq").

Ikki nisbatli fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshining ko'makchisi
ishtirokisiz ham passiv ma'noni ifodalashi holatlari ham uchrab turadi. Passiv
ma'no esa ularning sifat turkumiga o'tishiga asos bo'ladi.

چراغ علی باز هم همان دو نفر را دنبال سر خود به راه انداخته داشت به طرف درشکه .
Chirog'ali yana o'sha ikki kishini o'z ortidan ergashtirib, siniq arava
tomon boshlab borardi (ShXP, 245 b.)

Bu odamning badanidan kuydirilgan
jigar va yuvilmagan jun xidi kelardi (PDN, 89 b.)

Shunday qilib, yuqorida biz o'tgan zamon sifatdoshining passiv va aktiv
ma'nolarni ifodalash imkoniyatlarini ko'rib chiqdik. Demak, bundan o'tgan zamon
sifatdoshiga nisbat kategoriyasi ham xos, degan xulosa kelib chiqadimi?
Bizningcha, bu savolga "yo'q", deb javob berish kerak. Lekin shu bilan birga ba'zi
mulohazalarimizni ham aytib o'tamiz.

Nisbat kategoriyasi atamasi ostida sub'ektdan ob'ektga yo'nalayotgan ish-
harakat munosabatining u yoki bu semantik talqinini ifodalovchi grammatik
kategoriya tushuniladi va bu o'timli fe'lning alohida shakllari, shuningdek o'zaro
tafovuti ega pozitsiyasining sub'ekt yoki ob'ekt tomonidan band
etilgan/etilmaganida bo'lgan sintaktik konstruksiyalari bilan ifodalanadi
(Arslanbekov, 1980, 26 b.). nisbat oppozitsiyasini ifodalash fe'lning faqat aniq
shakllariga xos: نوشت "yozdi" – نوشتهد "yozildi". Yu.B. Potapovning to'g'ri qayd
etishicha, hozirgi zamon fors tilida nisbatning o'z shaklii ko'rsatkichigi ega faqat
birgina shakli – majhul nisbatgina mavjud. Unda aynan شدن "bo'lmoq" fe'li
passivlik mazmunini kirituvchi hisoblanadi, hozirgi va o'tgan zamon fe'lining

passiv konstruksiyasida ishtirok etuvchi o'tgan zamon sifatdoshining o'zi esa nisbat kategoriyasiga ega emas (Potapov, 1986, 39 b.). Yuqorida ko'rganimizdek, "aniqlanmish + o'timli fe'l o'tgan zamon sifatdoshi" atributiv konstruksiyasida qo'llanadigan passiv ma'no sifatdoshning ad'ektivatsiyasi va substantivatsiyasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday konstruksiyalarda tobe so'zlar yo'qligi ularning zikr etilgan so'z turkumlariga o'tishini ancha yengillashtiradi.

Lekin shu o'rinda ba'zi mulohazalarimizni o'rta tashlashimiz lozimdek tuyuladi. O'timli fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshlarida ba'zan nisbat ma'nolarining kuchsiz ifodasini sezish mumkin. Zarur hollarda passiv ma'noni aniqroq ifodalash uchun شدن "bo'lmoq" ko'makchi fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi shakli شده qo'llanadi va tegishli sifatdosh bilan butun birikma tashkil etadi (aynan "ikki nisbatli" fe'llarning o'tgan zamon sifatdoshlari kabi):

اگر میتوان مواد گرفته شده از غداد لنفاوی بزرگ شده را جدا کرد Agar kattalashgan limfatik bezlardan olingan moddani ajratib bo'lganda edi... (EH, 05.07.2012., 35 b.)

Shunday qilib, bu holatda faqat o'timli fe'llar sifatdoshlari aktiv va passiv ma'nolarga ega bo'la olishlari haqida gapirish mumkin, lekin ularda majhul daraja bor deyishga haqli asos yo'q. شده ko'makchisining qo'llanishini ko'proq uslubiy xususiyat desa bo'ladi, zero bunday birikmalar yordamida passiv ma'no aniq ifodalanadi va yengilroq idrok etiladi.

4.5. O'tgan zamon sifatdoshining fe'liy boshqaruv xususiyati

Hozirgi zamon fors tilida o'timli fe'llarning yana bir xususiyati bor. Ular را ko'makchisi yordamida tobe so'zlarni boshqarishi mumkin. Boshqaruv qobiliyati old ko'makchilar ishlatilishini talab qiladigan fe'llarda ham kuzatiladi. Ularning sifatdoshlari tegishli old ko'makchi qo'llanadigan oborotlar tashkil qiladi, masalan:

Ko'chaning badan teri va axlat qutisining qo'lansa xidi bilan bulg'angan havosi nafasimni bo'g'di (PDN, 134 b.).

آلوده با بوی عرق تن و بوی گند

Sifatdoshli oborot tashkil etish (yuqoridagi gapda زباله دان) bu turdagi sifatdoshlarning eng asosiy funksional xususiyatlaridan hisoblanadi va bunday oborotlar ergash gaplarga ekvivalent bo‘la oladi. Fe’liy boshqaruv imkoniyatini namoyon qilish sifatdoshlarning boshqa so‘z turkumlariga o‘tib ketishi yo‘lidagi asosiy to‘siq sifatida talqin etilishi mumkin. Sifatdoshli oborotlarda tobe so‘zlar unga از در با old ko‘makchilari yordamida birikadi. O‘tgan zamon sifatdoshlari tobe so‘zlarni boshqara turib, aniqlovchi ergash gap fe’l-kesimi bilan sintaktik sinonim bo‘lgan vazifani bajaradi. Sifatdoshli oborotlarni aniqlovchi ergash gaplar bilan almashtirish imkoniyatlari T.Z. Rustamovaning maqolasida yaxshi aks ettirilgan (Rustamova, 1985). Jumlaning mazmuni oborotlarni ergash gaplarga almashtirilganida mutlaqo o‘zgarishga uchramaydi. Qiyoslang:

پوشیده از مرجان نشست. Roza marjon bilan qoplangan qoyaga o‘tirdi (EH, 11.08.2006., 16 b.).

پوشیده از مرجان sifatdoshli oboroti صخره “qoya” so‘zining aniqlovchisi va oborot aniqlovchi ergash gap bilan almashtirilsa u ham aynan shu so‘ni aniqlaydi. Aniqlanayotgan so‘zga bu holatda یای اشاره orttiriladi. Sifatdoshli oborotni aniqlovchi ergash gapga almashtirishda ikki xil yo‘l tutish mumkin:

1. Ergash gap fe’l-kesimi distant holatda turadi:

صخره‌های که پوشیده از مرجان بود نشست

Roza marjon bilan qoplangan qoyaga o‘tirdi.

2. Ergash gap fe’l-kesimi kontakt holatda turadi:

صخره‌های که از مرجان پوشیده بود نشست

Roza marjon bilan qoplangan qoyaga o‘tirdi.

Sifatdosh bunday almashtirishlarda o‘zining asosiy morfologik vazifasida, ya’ni analitik fe’l zamonlari shaklini yasashda qo‘llanish vazifasida qo‘llanadi. Hozirgi zamon fors tilida bunday sifatdoshli oborotlar borgan sari keng iste’molga kirib borayapti. Alohida qayd etish lozimki, old ko‘makchili so‘z birikmalarining mazkur turi hozirgi zamon fors tili sintaktik tizimi uchun yangi konstruksiya hisoblanadi, zero ular klassik davr tilida deyarli uchramaydi. Hozirgi davrda

sifatdoshli oborotlar oddiy hodisaga aylanib, ularning sintaktik vazifalari rivojlana va murakkablasha bormoqda. L.S.Peysikovning fikricha, bu jarayon til taraqqiyotining qator omillari bilan bogʻliq boʻlib, ular orasida sifatdoshlarning morfologo-sintaktik kategoriya sifatida shakllanayotgani, feʼliy soʻz birikmalarning rivojlanishi va tarjima adabiyotlarining taʼsiri kabi omillar alohida ajratib koʻrsatilishi mumkin (Peysikov, 1959, 70 b.). Soʻzlovchining til vositalarini iqtisod qilishga intilishi ham zikr etilganlardan ahamiyati aslo kam boʻlmagan omildir. Sifatdoshli oborotlar esa uzun va tezkor nutq jarayoni uchun noqulay boʻlgan aniqlovchi ergash gaplar oʻrniga ishlatilib, soʻzlovchi, qolaversa, tinglovchiga ham nutq jarayonini ancha yengillashtiradi.

Oʻtgan zamon sifatdoshlarining turli old koʻmakchilar yordamida shakllanadigan oborotlarini koʻrib chiqamiz.

a) از old koʻmakchisi bilan:

بنا بر گذارشهای رسیده از مناطق عملیاتی نیروهای اسلامی دست به هجومهای غافل گیرنده

زدند

Jangovar harakatlar mintaqalaridan yetib kelgan xabarlarga koʻra islom armiyasi kutilmagan hujumlarga qoʻl urdi(K, 14.06.2006).

b) با old koʻmakchisi bilan:

Azizussaltana nozu firoq bilan عزیز السلطنه با حالت تاثر آمیخته با ناز و دلیری گفت....
qorishib ketgan gʻamginlik-la dedi... (ShXP, 187 b.).

v) به old koʻmakchisi bilan:

آنها برای حفاظت نفتکش آمده بودند اما در پناه نفتکش در مناطق آلوده به مین حرکت میکردند.
Ularneft tankerini himoya qilish uchun kelgan edilar, ammo minalashtirilgan(mina bilan ifloslangan) rayonlarda neft tankeri panasida harakatlanardilar(E, 04.07.2012., 3 b.)

g) در old koʻmakchisi bilan:

Shamol aralash(shamolga سرمای پیچیده در باد چشمهای مرگان را به آب می انداخت.
oʻralgan) sovuq Mergannning koʻzlarini yoshlantirardi(PDN, 98 b.).

Materialimiz sifatdoshli oborotlarda feʼlning barcha tarkibiy va leksik-grammatik turlaridan yasalgan oʻtgan zamon sifatdoshlari qatnasha olishini

ko'rsatdi. Qiyoslang: پوشیده از آب "suv bilan qoplangan", بر گرفته از بهترین قوا "eng yaxshi harbiy kuchlardan tanlab olingan", آسیب دیده از سیل "seldan zarar ko'rgan", آمیخته با شادی "xursandchilik bilan aralash" va b.

Demak, yuqorida keltirilgan misollar sifatdoshli oborotlar aniqlovchi ergash gaplarga sintaktik jihatdan sinonim bo'lib, ulardan lo'ndaligi va nutq jarayonida qo'llashga qulayligi bilan ajralib turishini tasdiqlaydi. Sifatdoshli oborotlarni yana shartli ravishda murakkab tarkibli aniqlovchi deb ham atash mumkin.

Shunday qilib, kuzatgan materialimiz fors tilida o'tgan zamon sifatdoshlari zamon ma'nosiga ega bo'lishi, o'zining yasalishi uchun asos fe'lining o'timli/o'timsiz ma'nosini saqlab qolishi va fe'liy boshqaruv imkoniyatlarini namoyon qilishi, lekin shaxs-son, mayl va nisbat kategoriyalaridan mahrumligini ko'rsatdi

XULOSA

Hozirgi zamon fors tilida fe'liy asosdan yasalgan va an'anaviy ravishda o'tgan zamon sifatdoshi nomi ostida jamlanuvchi so'zlarning leksik-grammatik guruhining funksional-grammatik tahlili fe'lining butun noaniq shakllari tizimini o'rganishning eng muhim aspektlaridan hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizda o'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni qilishga imkon beradi:

1. O'tgan zamon sifatdoshi ish-harakat natijasini predmet yoki shaxsning belgixususiyati sifatida ifodalaydi. Uning asosiy morfologik vazifasi fe'ning analitik zamon shakllarini yasashda ishtirok etish.

2. O'tgan zamon sifatdoshi o'zining asosiy morfologik vazifasidan kelib chiqib, fe'ning barcha tarkibiy va leksik-grammatik turlaridan hech qanday cheklovlarsiz yasaladi.

3. O'tgan zamon sifatdoshi o'zi uchun asos bo'lgan fe'l bilan to'liq semantik mutanosiblikni saqlaydi. Semantik o'zgarishlar faqat sifatdoshlarning ad'ektivatsiyasi va substantivatsiyasi holatlarida yuzaga kelishi mumkin

4. O'timli fe'llardan yasalgan o'tgan zamon sifatdoshi aktiv hamda passiv ma'nolarni ifodalaydi. Aktiv ma'no fe'ning analitik zamon shakllarini yasashda ishtirok etishda, passiv ma'no esa uning ad'ektivatsiyasi va substantivatsiyasi holatlari uchun asos bo'ladi.

5. Old ko'makchilar ishlatilishini qat'iy talab qiladigan fe'llardagi boshqaruv qobiliyati ularning sifatdoshlarida ham saqlanadi. Bunday sifatdoshlar tobe so'zlarni tegishli old ko'makchi orqali boshqarib, aniqlovchi ergash gaplarga sintaktik sinonim bo'lgan sifatdoshli oborotlarni tashkil etadi. Mazkur turdagi sifatdoshli oborotlar o'zining nutq jarayonida qo'llashga qulayligi bilan ajralib turadi va ularni shartli ravishda murakkab tarkibli aniqlovchi deb nomlash taklif qilinadi.

6. O'tgan zamon sifatdoshi ustidagi tadqiqotlarni sintaksis va so'z yasash sathlarida davom ettirish qiziqarli natijalar berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraxmonov, 1983. Абдурахмонов У. Неличные глагольные формы в современном таджикском литературном языке(в сопоставлении с персидским): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 1983. -21 с.
2. Alpatov ,1986 Алпатов В.М. О различных подходах к выделению частей речи. –Вопросы языкознания, №4, 1986, с. 37-46.
3. Arslanbekov, 1980 Арсланбеков А.И. Категория залога в современном персидском языке и языке дари Афганистана(опыт сопоставительного анализа грамматических категорий в двух близкородственных языках): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М, 1980. -22 с.
4. Vaxidov, 1990 Вахидов А.А. Причастия в современном персидском языке(функционально-грамматический анализ): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М, 1990. -22 с.
5. Vinogradov, 1972 Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. Изд. 2-е. М.: «Высшая школа», 1972. -614 с.
6. Osnovi, 1981 Основы иранского языкознания. Кн.3. Новоиранские языки. Западная группа, прикаспийские языки. (Отв. Ред. В.С.Расторгуева). –М.: «Наука», 1981. -571 с.
7. Peysikov, 1959 Пейсиков Л.С. Вопросы синтаксиса персидского языка. - М.: Изд.ИМО, 1959. - 411 с.
8. Polyakov,1988 Поляков К.И. Персидская фонетика(опыт системного исследования). –М.: «Наука»,1988. -316 с.
9. Potapov, 1986 Потапов Ю.Б. Словообразовательная транспозиция в персидском языке в сопоставлении с русским. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1986. -21 с.
10. Rastorgueva, 1953 Расторгуева В.С. Краткий очерк

- грамматики персидского языка // Миллер Б.В. Персидско-русский словарь. Изд. 2-е, испр. и доп. – М.: Госиздат иностр. и нац.словарей, - 1953. – С. 613-668.
11. Rubinchik, 2001 Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Восточная литература РАН, 2001. –600 с.
 12. Rustamova, 1985 Рустамова Т.З. О синтаксических синонимах причастных оборотов, употребляемых в составе предложения с глагольными сказуемыми в персидском языке. В кн.: «Актуальные проблемы иранской филологии». –Душанбе: «Дониш», 1985. с.119-126.
 13. Sazonova, 1975 Сазонова И.К. Причастия в системе частей речи и лексико-семантическая деривация. –Вопросы языкознания, №6, 1975. с. 87-98.
 14. Ufimseva, 1974 Уфимцева А.А. Типы словесных знаков. – М.: «Наука», 1974. -205 с.
 15. Kasraviy, 1943 کسروی ت.ا. زبان پاک. -تهران: شرق. 1943
 16. Mashkur, 1959 مشکor م.ج. دستورنامه. در سرف و نحو زبان پارسی-تهران: شرق. 1959.
 17. Xonlariy, 1972 خانلری پرویز ناتل . دستور زبان فارسی. -تهران: بنیاد فرهنگ ایران. 1972
 18. Xumoyunfarrux, 1958 همایون فرخ. ا. دستور جامه زبان فارسی. هفت جلد در یک مجلد. -تهران: علمی. 1958

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

K	روزنامه کیهان. بعضی از شماره های سالهای 2005-2012
PDN	پزشکزاد ایرج. دائی جان ناپالئون. تهران. 1959
PRS	Персидско-русский словарь в 2-х томах. Под ред. Ю.А.Рубинчика. Изд. 2-е, стереотипное, М.:1983
ShXP	شاهانی خسرو. پهلوان محله. تهران. 1979
E	روزنامه اطلاعات. بعضی از شماره های سالهای 2009-2012
EH	روزنامه اطلاعات هفتگی. بعضی از شماره های سالهای 2010-2012